DOI: https://10.5281/zenodo.18074418

SAMARQAND DUNYONING ZIYNATI: AMIR TEMUR BUNYODKORLIGI VA XALQARO E'TIROFI

Juraqulova Farangiz Turaqul qizi
O'zMPU magistratura bo'limi
ijtimoiy va gumanitar fanlari o'qitish metodikasi(tarix)
2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolam orqali yer yuzining sayqali bo'lgan Samarqandda Amir Temur davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari hamda Yevropa xalqlari tomonidan e'tirof etilishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar; Temuriylar, madrasa, Shohi Zinda, Bibixonim, Registon, Amir Temur maqbarasi, Klavixo, e'tirof, Samarqand.

Amir Temur nafaqat O'rta Osiyoda balki Yevropa tarixda ham nom qoldirgan amir. Amir Temurning boshqa hukmdorlardan asosiy farqi shu ediki, imperiyani kengaytirish, hududlarni o'z imperiyasiga qo'shib olish bilan birgalikda bosib olgan hududlariga islom madaniyatini tarqata oldi. Amir Temur 27 ta davlatni birlashtirib ulkan bir imperiyaga asos solgan edi. Keling, nima uchun Amir Temur poytaxt sifatida Samarqandni tanladi, poytaxtda amalga oshirilgan qurilish ishlari qay darajada edi, Samarqand bu vaqtda xalqaro maydonda qanday baholandi shu kabi savollarga javob topishga harakat qilib ko'ramiz.

Samarqand, qadimiy va betakror shahar, biz guvoh bo'ganmizki,tarix davomida Markaziy Osiyoning madaniy va siyosiy markazlaridan biri bo'lib kelganlgi hammamizgi ma'lum. Ayniqsa, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur hukmronligi davrida bu shahar yangi davrni boshidan kechirdi yangidan shahar barpo etildi. Uning bunyodkorlik faoliyati tufayli Samarqand jahonning eng go'zal va obod shaharlaridan biriga aylandi. Samarqand nafaqat mustahkam qal'alar va ulug'vor binolar bilan boyitildi, balki ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi.Samarqandga tashrif buyurgan Ispaniya elchisi Klavixo Samarqandga quyidagicha ta'rif beradi; «Samarqand shahrida Xitoydan, Hindistondan, Tataristondan va boshqa turli joylardan keltirilgan hamda Samarqand podshohligining o'zida ishlab chiqarilgan har xil mollar sotiladi... Unda (Samarqandda) barcha narsalarni tartib bilan sotish uchun katta joy bo'lmagani, podsho shahar bo'ylab katta ko'cha chiqarib, uning ikki tomonida mol

sotish uchun rastalar va do‘konlar qurishni buyurdi. Bu ko‘cha shaharni bir chetidan boshlanganligi va butun shahar orqali yurib, ikkinchi chetiga borib etishini kerak edi[1]. Yuqoridagi ta’rifdan ham bilinib turibdiki, Temuriylar davrida qurilish ishlarida boshqa shaharga nisbatan ancha rivojlanish ertaroq boshlanganligi. Amir Temur o‘z davrining eng ilg‘or me’moriy an’analari va qurilish texnologiyalaridan foydalangan holda Samarqandni jahonning markaziy shahri sifatida rivojlantirishga harakat qilgan.

Uning topshirig‘i bilan shahar devorlari mustahkamlangan, keng ko‘chalar, xiyobonlar, bog‘lar va kanallar barpo etilgan. Ayniqsa, Registon maydoni va uning atrofidagi binolar Samarqandning tarixiy qiyofasini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etgan. Xususan Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temur bunyod ettirgan Ko‘ksaroy haqida quyidagi ma’lumotlarni yozadi: “Temurbek solg‘on oliy imoratdirin biri Ko‘ksaroydurkim, Samarqandning arkida voqe bo‘lubtur.Ajab xosiyatli imoratdur[2]”. Amir Temur rahnomoligida Samarqandda 20 dan ortiq me’moriy inshoatlar bunyod etildi. Ulardan eng mashhurlari haqida tanishib chiqsak.

Ulardan birinchisi bu Bibixonim masjidi Amir Temurning rafiqasi nomi bilan ataluvchi ushbu ulkan masjid Temurning buyuk g‘alabalari ramzi sifatida bunyod etilgan. U Samarqandning ramziga aylangan bo‘lib, o‘zining ulug‘vorligi va nafis bezaklari bilan jahon me’morchiligi durdonalaridan biri sanaladi. Amir Temur Hindistonga qilgan harbiy yurishidan qaytgach, Samarqandni yanada obodonlashtirish maqsadida ulkan masjid qurdirishga qaror qiladi. Uning bunyod etilishi 1399-yilda boshlangan va bir necha yil ichida tamomlangan. Rivoyatlarga ko‘ra, bu masjid Amir Temurning suyukli rafiqasi Bibixonim nomi bilan atalgan. Bibixonim maqbarasi haqidagi ilk tarixiy ma’lumotlarni biz 1404 yili Samarqandga tashrif buyurgan, Kastiliya qiroli Genrix III ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklaridan o‘qishimiz mumkin. Ispan elchisi bu yodgorlik haqida: “Dushanba, yigirma to‘qqizinchi sentabr kuni janob (ya’ni, Amir Temur) Samarqand shahriga jo‘nadi va shaharga kirish yo‘lining ustida joylashgan bir uyga to‘xtadi. Bu uyni janob xotini Kan’o (Bibixonimning onasi) uchun qurdirgandi. Uning onasi shu uyning ichidagi saganaga dafn etilgan. Uy juda xashamatli bo‘lib, ichi ajoyib bezatilgan. Ularda uylarni juda xashamatli bezatish odati bo‘lmasa-da, bu uy xashamatli, u xali bitmagan, har kuni ish bormoqda[3]” deb yozgan edi.

Bibixonim masjidi nafaqat diniy markaz, balki Samarqandning madaniy va siyosiy nufuzi ramzi sifatida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning qurilishi Amir Temurning shon-shuhratini yanada yuksaltirib, uning bunyodkorlik salohiyatini

[1] Mo'minov.M.Samarqand tarixi. I tom.T.1971.-B.169.
[2] G’oyibov.S va boshqalar “ O’zbekiston tarixi (Samarqand tarixi) IX jild.T.2023.-B.175.
[3] Кулматов.Ш, Бердимуродов.А..Самарканд ёдгорликлари - Самарканд: Икмом Бухорий халкаро маркази, 2017.Б .110.

namoyon etgan. Bibixonim masjidi nafaqat diniy markaz, balki Samarqandning madaniy va siyosiy nufuzi ramzi sifatida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning qurilishi Amir Temurning shon-shuhratini yanada yuksaltirib, uning bunyodkorlik salohiyatini namoyon etgan.

Shohi Zinda majmuasi – Samarqandning eng qadimiy va muqaddas yodgorliklaridan biri bo‘lib, u islom me’morchiligining noyob namunasi hisoblanadi. Majmua o‘zining tarixiy ahamiyati, nafis bezaklari va sirli afsonalari bilan mashhur. Shohi Zinda – "Tirik Shoh" ma’nosini anglatadi. Rivoyatlarga ko‘ra, bu yerda Muhammad (s.a.v)ning amakivachchasi Qusam ibn Abbos dafn etilgan. U islomni Markaziy Osiyoga tarqatish uchun kelgan va shafqatsiz dushmanlar tomonidan shahid qilingan. Ammo afsonaga ko‘ra, u tirik qolib, sirli g‘orda yashashda davom etgan.

Samarqand 2750 yillik shaharsozlik tarixida nafaqat savdo markazi balki ilm va madaniyat markazi sifatida ham mashhur bo‘ldi. Bilamizki, X asrdayoq Samarqandda 10 dan ortiq madrasalar faoliyat yuritgan. Xattoki bugungi kunda ilk dorilfunin ham XV asrda Samarqandda faoliyat boshlab unda birinchi Muhammad Xavoqiy o‘qigan. Mirzo Ulug‘bek 1417-1420-yillar orasida Samarqand viloyatining hozirgi Registon maydonida o‘z davridagi talabalar va kelajak avlodning ilm olishi maqsadida, katta madrasa binosini qurishga farmon bergan.

Ulug‘bek madrasasi – Temuriylar sulolasi davrida barpo etilgan eng yirik ilm-ma’rifat maskanlaridan biri bo‘lib, Samarqand shahrining markazida joylashgan. Ulug‘bek o‘z hukmronligi davrida ilm-fan va ta’limga katta e’tibor qaratgan. U Samarqandni Sharqning eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biriga aylantirishga harakat qilgan va bu madrasa aynan shu maqsadda qurilgan. Bu yerda matematika, astronomiya, falsafa va boshqa fanlar bo‘yicha mashhur olimlar dars bergan.

Ulug‘bek madrasasi o‘rta asrlardagi eng ilg‘or ta’lim muassasalaridan biri bo‘lib, uning me’moriy va ilmiy merosi bugungi kunda ham katta qadr-qimmatga ega. Bu madrasa Samarqandning tarixiy obidalaridan biri sifatida butun dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb qilmoqda. 1979-yil Yaponiyada o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada Yaponiya Fanlar akademiyasining Prezidenti prof. Sapporo Miyakining “Samarqand nafaqat jahon sivilizatsiyasining markazi bo‘lib qolmay, alloma Mirzo Ulug‘bek asos solgan falakiyot ilmining ham markazidir[1]” deb aytgan, so‘zlari Samarqandni xalqaro miqyosdagi salohiyati to‘g‘risidagi fikrlarini yana bir bor tasdiqladi. Samarqandning yana bir marvaridi Amir Temur maqbarasidir. Maqbara qurilishi buyuk Sohibqiron Amir Temur tomonidan 1404-yilda boshlanib, Mirzo Ulug‘bek davrida tugallangan. Amir Temur maqbarasining gumbazi jez, lojuvard, tilla suvlari bilan bezatilgan.

[1]Қодиров. М.Қ, Маҳмудов Б.М. Улуғбек даври фани тарихидан. // Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. -Тошкент - Самарқанд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2007. -Б 189.

Rossiya imperiyasi istilosi yillarida maqbara darvozalari o‘g‘irlab ketilgan. Amir Temur maqbarasining darvoza paridan biri Londonda, yana biri Ermitajda saqlanmoqda. Amir Temurga tegishli bo‘lgan uzuk esa Amerikadagi “Metropoliten” (Nyu-York) muzeyida saqlanmoqda[1].

Samarqandning yana bir marvaridi Amir Temur maqbarasidir. Maqbara qurilishi buyuk Sohibqiron Amir Temur tomonidan 1404-yilda boshlanib, Mirzo Ulug‘bek davrida tugallangan. Amir Temur maqbarasining gumbazi jez, lojuvard, tilla suvlari bilan bezatilgan. Rossiya imperiyasi istilosi yillarida maqbara darvozalari o‘g‘irlab ketilgan. Amir Temur maqbarasining darvoza paridan biri Londonda, yana biri Ermitajda saqlanmoqda. Amir Temurga tegishli bo‘lgan uzuk esa Amerikadagi “Metropoliten” (Nyu-York) muzeyida saqlanmoqda .

Amir Temur tomonidan barpo etilgan Samarqandning buyukligi nafaqat Sharq, balki butun dunyoda e’tirof etilgan. O‘rta asrlarda arab, fors, xitoy va yevropalik sayyohlar Samarqandni "dunyoning markazi" deb ta’riflashgan. Ularning yozuvlarida shahar me’morchiligi, bozorlari va fan taraqqiyoti alohida ta’kidlangan.

Bugungi kunda Samarqand Amir Temur me’moriy merosi tufayli YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan va dunyo bo‘ylab sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Samarqandning buyukligi va jozibasi Amir Temur davrida boshlangan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari tufayli shakllangan. Uning me’moriy obidalari nafaqat tarixiy yodgorlik, balki jahon tamadduni va madaniyatining muhim bo‘lagi sifatida e’tirof etiladi. Shuning uchun ham Samarqandni haqli ravishda "dunyoning ziynati" deb atashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1.Mo‘minov.M.Samarqand tarixi. I tom.T.1971.
2.G‘oyibov.S va boshqalar “ O‘zbekiston tarixi (Samarqand tarixi) IX jild.T.2023.
3.Кулматов.Ш, Бердимуродов.А..Самарканд ёдгорликлари - Самарканд: Икмом Бухорий халкаро маркази, 2017.
4.Қодиров. М.Қ, Маҳмудов Б.М. Улуғбек даври фани тарихидан. // Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. -Тошкент - Самарқанд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2007.
5.Кулматов Ш, Бердимуродов А. Самарканда ёдгорликлари. Самарканд: Икмом Бухорий халкаро маркази, 2017.

[1]. Кулматов Ш, Бердимуродов А. Самарканда ёдгорликлари. Самарканд: Икмом Бухорий халкаро маркази, 2017. Б.27.